

## **KOGNETIV TILSHUNOSLIKDA BAXT KONSEPTINING IFODALANISHI VA AHAMIYATI**

**G‘ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi**

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi o‘qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

E-mail:gulomovamukxlisa@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Baxt konseptining og‘zaki nutq diskursida ifodalanishi o‘rganilgan. Baxt so‘zlashuv nutqi norasmiy leksikasi bilan boshqa dialogik nutqlardan keskin farq qiladi. Shuningdek, Ingliz va o‘zbek tillarida baxt olami verbalizatorlari nihoyatda boy bo‘lganligi sababli bular bir-biriga bog‘liq leksemalar yordamida shakillantira oladi.

Mazkur maqola yordamida Ingliz va o‘zbek tillarida Baxt konseptining ifodalanishi va ma’nodoshlari haqida batafsil ma’lumotga ega bo’lishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Tushuncha, konsept, baxt, termin, izohli lug‘at, mammunlik steriotip, preoritet.

### **KIRISH**

Tilshunoslik hozirgi kunda rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Shu jumladan uning tarkibiga kiruvchi Konsept ham bir vaqtning o‘zida rivojlanib bormoqda. Konsept atamasi XX asrning 90-yillariga kelib keng qo‘llanila boshlagan. U tushuncha so‘zi bilan ma’nodosh bo‘lsada, ayrim holatlarda bir-biri bilan farqlanadi va kengroq ma’nolarni o‘zida ifoda etadi. Konsept nafaqat ierarxik tizimning lingvomadaniy sohalariga asoslani qolmay, balki biror bir xalq madaniyatini o‘zida aks ettiradi. "Konsept" – insonning bilim va tajribasi namoyon bo‘ladigan va u bilan o‘z faoliyatini ko’rsatadigan abstrakt birlikdir. (1) Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra “Baxt” konseptini kognitiv nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. Baxt terminiga O‘zbek tili izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “Baxt”- Kishining o‘z faoliyat natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mammunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu umidning ushalishi sifatida namoyon bo‘ladigan ma’naviy ahloqiy tushuncha. Boshqa ma’nosи esa, hayot (turmush)dan to‘la mammunlik va bearmonlik holati; saodat qut. (**Mehnat- baxt keltirar. Maqol**) (2)

### **BAXT TERMINI HAQIDA MULOHAZALAR VA UNING INGLIZ TILIDAGI MA’NODOSHLARI**

Barchamizga ma’lumki yer yuzida 7 milliardan ortiqroq odam yashaydi. Ularning har biri alohida o‘ziga hoslikka, o‘zining fikrlashiga, dunyo qarashiga, o‘zining steriotiplariga va preoritetlariga egadir. Shularga tayangan holda ayta olamanki, biz insonlar turlichay fikrlaymiz va biz uchun Baxt termini ham

turlichadir. Har bir odam uni o‘zi istagandek tushunadi hamda o‘zi istagandek tasavvur qiladi. Kim uchundir Baxt moddiyatda, erishgan yutuqlarida, egalik qilayotgan buyumlarida,kariyerasida va shunga o‘xhash boshqa narsalarda aks etsa, yana kim uchundir Baxt oilasida, tinchlik-totuvlikda, salomatlikda, do‘stilar davrasida, kelajak maqsadlari va boshqalarda o‘z aksini namoyon qiladi. Bu holda unga yashab turgan joyi, masalan; atrof muhiti, mentaliteti, din-e’tiqodi, o‘zining qadryat va ananalari bevosita ta’sir etadi.

Muxtorxon Eshon Umarxo‘janing ta’kidlashicha “Inson dunyoga kelibdiki, baxtga intiladi, negaki baxtli yashashga intilish tug‘ma bo‘ladi. Har bir kishi baxtli bo‘lgisi keladi va bunga haqli ham. Lekin yolg‘iz o‘zim baxtli bo‘lishni xohlayman, boshqalar bilan ishim yo‘q, deb yashash baxt keltirmaydi. Sababi, baxt-ijtimoiy tusahuncha. Boshqalarning baxtini o‘ylab o‘z baxtimizni topamiz. Imkon darajasida ko‘proq odamlarga baxt hadiya qilgan kishi eng baxtli kishidir.

El-yurt saodati, butun insoniyat farog‘ati haqida qayg‘urish insonni baxt tomon yetaklaydi. Baxt havoda esmaydi, u ko‘p mehnat qilgangagina nasib etadi, Har bir shaxs o‘z baxt-saodati ijodkoridir. Baxtiyorlik hamma uchun bir qolip va andoza bo‘lavermaydi. Uni inson o‘z ilmi, dunyoqarashi, tushunchasi va e’tiqodiga ko‘ra belgilaydi. Baxtni bir ma’noda “Inson orzularining ushalishi” deb talqin etish mumkin.” (3)

“Baxt- faqat boylikda, deb hisoblovchi kishida, albatta, kibr mavjud,baxillik mavjud, hiyonat, rivo mavjud”

### Tohir Malik

“Zavq va orzular zinapoyaga o‘xshaydi. Zinalar o‘tirib, dam olishga moslashmagan. Umrni shu zinalarda behuda o‘tkazmaslik uchun g‘ofillikdan tez uyg‘ongan va hayotining mohiyatini to‘g‘ri anglab yetgan odam naqadar baxtli.”

### Jaloliddin Rumiy

Yuqoridagilar fikrlar bilan tanishib chiqqaniningizdan so‘ng, **Baxt** konsepti har bir inson uchun turlicha ma’nolarni ifodalashini va uni aynan bitta qolipa solib bo‘lmasligini anglab yetasiz.

O‘zbek tilida baxt atamasiga ta’rif berib o‘tdik, endi esa uning Ingliz tilidagi ma’nosini bilan tanishib chiqamiz. **Happiness**-a state of well-being and contentment; a pleasurable or satisfying experience.

“Happiness is a gift and the trick is not to expect it, but to delight in it when it comes.”

### Charles Dickens (4)

Happines so’ziga sinonim bo‘luvchi so’zlar va ma’nolari:

1. Blessedness – a state of supreme happiness;
2. Bliss – a state of complete happiness or joy;
2. Blissfulness – a state of extreme happiness;
4. Gladness – experiencing joy and pleasure;
6. Felicity – is a state of happiness or the quality of joy.

Yuqoridagilardan ma'lumki (*blessedness, bliss, blissfulness, gladness, felicity*) kabi so'zlar ingliz tilidagi baxt so'zining ma'nodoshlari sifatida qo'llanilsa bo'ladi.(5) Ushbu konseptning tarixiy va falsafiy tomondan o'rganilishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "Baxt" qadimgi davrda evdonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo'lgan. Uning vakillari baxtga hayotning asosiy maqsadi, kishilar intiladigan masrurlikka erishilgan holatning, shod-hurram bo'lishning eng oliv ko'rinishi sifatida qaraganlar. **Aristotel, Epikur, Diogenlar** ham shunday tushunganlar. **Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Sa'diy She'roziy, Navoiy** kabi ko'plab olim va mutafakkirlar ijodida bu mavzu muhim o'rinni egallagan.

Baxt bu nisbiy tushuncha hisoblanadi. Uni har qanday inson turlicha tushunishi va uni turlicha talqin etishi mumkin. Xulosa qilib aytganda Baxtni qay tarzda tushunish hamda anglab yetish shaxsning aqlidroki, ongu-shuri, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq. Har bir mustaqil fikrlovchi shaxs o'z ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, hatti-harakati, xulqi, aql-zakovati yordamida baxtli bo'lish uchun tinimsiz mehnat qilishi va intilishi darkor.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.M.Magrufova O'zbek tilining izohli lug'ati.M.-1981. 85b
2. O'zbek Tilining Izohli Lug'ati (B) "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent.(178-bet)
3. M.E Umarxo'ja "Qizil kitob"ga tushmas tuyg'ular. Toshkent "Akademnashr"2020. (26-bet)
- 4."Fictional character:Vincent Crummles". "Nicholas Nickleby",www. imd.com.2002.
5. 2022 Merriam-Webster, Incorporated & Copyright 2023 Vocabulary.com,Inc., a division of IXL Learning